

## **G’AFUR G’ULOMNING “SOG’INISH” SHE’RI TAHLILI**

*Jo‘rayeva Sevinchoy Zavqiddinovna*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Xususiy huquq fakulteti 2-kurs*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada G’afur G’ulomning “Sog’inish” she’ri insonlar ongida va qalbida uzoqdagi yaqinlariga bo’lgan mehr-muruvvati hamda oddiy bir otaning urushga ketgan farzandini qaytib kelishiga bo’lgan umidi hamda sog’inch hislari qanchalik mukammal darajada tasvirlab berilgani tahlil qilib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** Sog’inish, yupiter, umid, uzilgan kiprik, kutish.

O’lmas asarlar ijodkori Ga’fur G’ulom ijodiga nazar tashlaydigan bo’lsak, uning asarlari, she’rlari hamda hikoyalari orqali biz uning o’tkir qalam sohibi ekanligini ko’rishimiz mumkin. G’afur G’ulom ijodda juda serqirra shoir hamda yozuvchi hisoblanadi, biz uning yaratgan asrlari orqali uning qanchalik yuksak ijodkor ekanligini bilib olishimiz mumkin. Uning ijod mahsuli juda keng qamrovli bo’lib, adib o’z ijodiga juda o’zgacha usullar bilan yondashgan.

G’afur G’ulom o’z ijod mahsullarida asosan urush paytida insonlarning ichki dunyosida kechgan his-tuyg’ularini ochib berishga hamda o’z she’rlari orqali urushga ketgan yaqinlariga nisbatan sog’inch hislarini tasvirlagan holda o’z asarlarini yaratgan. Bilamizki, Ga’fur G’ulomning “ Sog’inish” she’ri uning ijodida juda sermahsul ijod na’munalaridan biri hisoblanadi. G’afur G’ulomning mazkur “Sog’inish” she’ri haqida so’z yuritadigan bo’lsam, mazkur she’rda adibning urushga ketgan o’g’lini qaytib kelishini kutgan otaning sog’inch tuyg’ulari ochib berilgan.

Adib ushbu she’rni yozar ekan o’sha urush yillarda insonlarda bosqinchilarga qarshi kurashish hissini uyg’otadigan hamda xalqning muqarrar g’alabasiga ishonch ruhi bilan sug’oriladigan she’rlar yaratish qanchalik xavfli ekanligini bilgan holda mazkur she’rni qo’rqmasdan yaratgan ijodkordir. Bilamizki, urushning dastlabki yillari va undan so’ng ham o’zbek xalqi o’z qarashlarini va urushga ketgan farzandlarining qaytib kelishi umidida yashash qanchalik azob ekanligini ochiqda-nochiq aytish juda qiyin ish edi. O’sha davrda hamda undan keyingi davrlarda ijod qilgan adiblar ham hattoki G’afur G’ulomning ijodiga o’zgacha baho berishgan, ya’ni ularning ayrimlarining ta’riflashi bo’yicha yurtni , xalqni ulug’lashda hamda ularning dardini nafaqat o’z asarlarida namoyon qila olgan balki ularni tiliga ham chiqara olgan umuminsoniy shoir deb bilishgan.

Zotan, o’tgan asar o’zbek adabiyoti she’riyatida hech kim G’afur G’ulom kabi o’z kechinmalarini “Sog’inish” she’ridagi kabi “ eng kichik zarradan Yupitergacha” siyosida ifoda etmagan.

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,  
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.  
Eng kichik zarradan Yupitergacha  
O'zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh

Adibning mazkur “Sog'inish” she'ri bir qarashda juda jo'n yozilgandek ko'rinishi mumkin, lekin unga aniqroq yuzlanib, uni o'rganadigan bo'lsak, aslida ushbu she'r juda chuqur ma'noga ega ekanligini ko'ra olamiz. Ya'ni, unda ta'riflab bo'lmaydigan darajada bir otaning o'g'liga nisbatan bo'lgan o'ta mavhum bir yuksak tuyg'uning mavjud ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Shoirning “zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek” degan jumlesi yuzaki jihatdan oddiy lekin aslida unda otaning urushga ketgan o'g'lisiz qolishi tufayli o'zini huddi bir dunyo ichra tanho qolgan insondek ya'ni yetim bo'tadek his qilayotganligi ifodalangan. She'rning misralari bir qarashda o'qib tushunish mumkin lekin uning asl ma'nosini anglamaguncha esa, uning aniq bir qiyofasini shakillantira olmaymiz. Bu turdag'i she'rlarda asosan uni o'qib ayta olish emas, balki uning asl ma'no-mazmumnini anglay olish hamda ushbu she'rda ishlatilgan har bir misraning ich-chiga kirgan holda, haqiqatda ushbu ajib bir she'rda ko'rsatilgan hodisa va tuyg'ularni haqiqatda taassavur qila olmoqdan o'zga yoqimli his bo'lmasa kerak.

“Sog'inish” haqidagi she'rda shunchalik sog'inch, umid hamda farzandning omon qolishini kutish dardi shu darajada namoyon etilganki, buni mazkur she'rning ikkinchi bandida ham ko'rishimiz mumkin. Unda shunday deyilgan:

Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas,  
Shunchalar mustahkam xonai xurshid.  
Bugun sabza bo'ldi qishdagi nafas,  
Hozir qonda kezar ertagi umid.

Ushbu misralardan ham otani o'g'ining qaytib kelishiga bo'lgan umidi “uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas” jumlalari orqali mukammal ta'riflangan bo'lib, u orqali shoir bizga inson kipriklari o'z makonidan uzilsa-da, lekin unga bo'lgan umid abad bo'lishini hamda ertaga bo'lgan umidini hozir qonda ya'ni, havotir va o'g'lining o'limi qo'rquvi ichra kezayotganligini ajoyib bir tarzda ta'riflab o'tgan. Shuningdek, G'fur G'ulom o'z she'rda shunday degan:

Iblisning g'arazi bo'lgan bu urush  
Albatta, yetadi o'zin boshiga.  
O'g'lim omon kelar, g'olib, muzaffar,  
Gard ham qo'ndirmasdan qora qoshiga.

Mazkur misralar orqali biz shuni ko'rishimiz mumkinki, G'afur G'ulom urushni bevosita “iblisning g'arazi” ga taqqoslagan holda huddi iblis kabi urush ham o'z boshiga o'zi yetishi haqida aytib o'tgan va bu benihoyatda ajib bir o'xshatish bo'lib, shu orqali bevosita urushning naqadar ayanchli hamda halokatli bo'lishini ochib

bergan. Shu kabi jumlalar orqali ham G’afur G’ulomning qanchalik yuksak ijodkor ekanligini ko’rishimiz mumkin.

G’afur G’ulomning “Sog’inish” she’rini qisqacha tahlil qilish natijasida, shuni aytish mumkinki, adib bu she’r orqali insonlarga urush qanchalik ayanchli ekanligini, bir otaning necha yillar davomida katta qilib voyaga yetkazgan o’g’lining fashist bosqinchilarga qarshi yurt uchun, tinchlik uchun qilayotgan fidokorligi mobaynida otaning chekkan ichki azob-uqubatlari hamda his-tuyg’ulari ajoyib bir tarzda olib berilgan. Ya’ni shuni anglash lozimki, so’g’inch tuyg’usini faqat kutganlar va yo’qotganlargina yaxshi anglay olishadi va G’afur G’ulom ham shunday insonlardan bir edi.

Shunday ekan, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu “Sog’inish” she’ri har birimizda yonimizdagи yaqin insonlarimizni qadrlash va ularni asrashimiz kerakligini anglatgan holda insonlarni shu zamindar o’rnatilgan tinchlikning qadriga yetishga undaydi. Shu sababli ham biz mazkur she’rning ijodkori bo’lgan G’afur G’ulomni tinchlikni targ’ib qiluvchi hamda xalq kechinmalarini oshkora jo’sh uruvchi o’lmas asarlar ijodkori deyishimiz o’rinlidir.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro’yhati:**

- <https://adiblar.gitbook.io/adiblar/gafur-gulom/soginish-sheri>
- G’afur G’ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. -T.:G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-yil